
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING 2023 YIL TASHRIFI GA KIRITILGAN LOYIHALAR O'RGANILMOQDA.



Quvasoy shaxar xokimi Z.To'raqulov Pakana MFY hududidagi umumiy qiymati 20 mln.AQSh dollar bo'lgan "ART SOFT CERAMICS" MChJning "Keramogranit plitalar ishlab chiqarish" loyixasi bilan tanishdilar. Ushbu loyihani amalga oshirilishi hisobiga yiligi 72,6 mlrd.so'mlik 1,2 mln dona keramogranit plitalar ishlab chiqarish, ishlab chiqarilgan mahsulotdan 3 mln. AQSh dollari miqdorida eksport amalga oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Hozirda Xindistonlik 1 nafar mutaxassis va Xitoy Xalq Respublikasi «MODENA TECHNOLOGY LIMITED» korxonasi ning 3 nafar mutaxassislari va 40 nafar mahalliy mutaxassislardan iborat brigada ob'ektda uskunalarni montaj ishlarini yakunlamokda.

Mazkur loyiha 2022 yil noyabr oyida foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan. Bugungi kunda ishchilar qabul qilish boshlangan, loyiha bo'yicha 320 nafar yangi ish o'rinlarini yaratish belgilangan.



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2022-08-26 10:10:07